

TAOMLARNING HALOL YOKI HAROM BO'LISHDAGI SHARTLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8041748>

Xushvaqto'v Yusuf Baxtiyor o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,

"Islomshunoslik" mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annatsiya.

Bu maqolada taomlarning halol yoki harom bo'lishidagi shartlar qaysilar ekanligi, bu masalaga hanafiy ulamolarning fikrlari va qarashlari yoritilgan. Halol va haromlik masalalari Qur'on va hadislar bilan ifodalandi.

Kalit so'zlar.

Halol. Harom taom. Qur'on/hadis. Hayvonlar. go'sht.

Islom halol va harom qilish huquqini chegaralab, xalq nazarida va Alloh taoloning huzurida darajalari qanday bo'lishligidan qat'iy nazar bu huquqni insonlarga bermagan, balki, uni yolg'iz Alloh taoloning haqqi sifati ila qabul qilingandir. Biror narsa to'g'risida harom hukmini chiqarishga insonlardan hech kimning haqqi yo'q. Bir narsani harom qilishga hukm bergan kimsa, Alloh taoloning haqqini poymol qilgan va yolg'iz Unga oid bo'lgan bu hukmda haddidan oshgan hisoblanadi. Qur'oni Karim ham halol va harom hukmini hakam va poplarning qo'liga topshirgan ahli kitob (yahudiylar va nasroniylar) haqidagi xabarlar mavjud.

Alloh taolo bu xususda, shunday marhamat qiladi:

اتَّخَذُوا أَخْبَارَهُمْ وَرُهْبَانَهُمْ أَرْبَابًا مِّن دُونِ اللَّهِ وَالْمَسِيحِ ابْنِ مَرْيَمَ وَمَا أُمِرُوا إِلَّا لِيَعْبُدُوا إِلَهًا وَاحِدًا لَّا إِلَهَ إِلَّا هُوَ
سُبْحَانَهُ عَمَّا يُشْرِكُونَ

"Ular Allohni qo'yib o'zlarining donishmandlarini va rohiblarini hamda Masih binni Maryamni Parvardigor deb bildilar. Holbuki, faqat yagona Allohga bandalik qilishga ma'mur (buyurilgan) edilar. Hech iloh yo'q, faqat Uning O'zi bordir. U zot Ularning shirkalaridan pokdir".¹⁴⁰

Bir kuni Adi ibn Hotim (u Islomdan avval nasroniy edi) Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning huzuriga kelib, u kishidan mazkur oyatni eshitganida aytdiki: "Ey Rasululloh sallallohu alayhi vasallam, ular - nasroniylar va yahudiylar rohib va poplarga ibodat qilmaydilar-ku, Rasululloh (s.a.v)unga Shunday javob qildilar:

¹⁴⁰ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. 2004, – B. 197.

"Ha, ular halolni harom, haromni esa halol qilib oldilar. Nasroniylar ham ularga ergashdilar. Anashu Ularning bir-biriga ibodatlaridir. Boshqa bir rivoyatda esa payg'ambar (s.a.v)mazkur oyatning tafsirida Shunday deganlar: "Ular go'yo bir-birlariga ibodat etmayotgandek ko'rinadir. Ammo rohib va poplar halolni harom, haromni esa halol qilganlarida, ular buni qabul etar va shunga ko'ra ish tutar edilar¹⁴¹".

Qur'oni Karim, shuningdek, Alloh taoloning izni bo'lmay turib, o'z havoyi nafslariga ko'ra halol va harom xususida o'zlaricha hukm chiqargan mushriklar haqida ham xabar keltiradi:

وَلَا تَقُولُوا لِمَا تَصِفُ أَلْسِنَتَكُمُ الْكُذِبَ هَذَا حَلَالٌ وَهَذَا حَرَامٌ لَتُفْتَرُوا عَلَى اللَّهِ الْكُذِبَ إِنَّ الَّذِينَ يَفْتَرُونَ عَلَى اللَّهِ الْكُذِبَ لَا يُفْلِحُونَ

"Alloh sha'niga yolg'on to'qish uchun (ya'ni, Alloh buyurmagan hukmlarni Allohnikideyish uchun) tillaringizga kelgan yolg'onni gapirib: "Bu halol, bu harom", deyavermanglar! Chunki Alloh sha'niga yolg'on to'qiydigan kimsalar hech najot topmaslar"¹⁴².

Mazkur oyati karima va hadisi shariflardan Islom huquqshunoslari shunday xulosa qilganlarki, halol va harom qilish haqqi yolg'iz Alloh taologa oiddir. Bu borada faqihlarning vazifasi esa faqat insonlarga halol va harom narsalar haqida ilmni yetkazishdan iboratdir. Ularning ishi diniy hukmlar keltirish emas. Ular (mujtahid va imomlik sifatiga ega bo'lsalar-da) fatvo berishdan tiyiladilar halol va harom xususida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun juda ehtiyotkorlik bilan ish tutadilar.

Islom halol va harom hukmini berganlarni tanqid qilar ekan, bu ishda bir dalilga tayanmay turib, Alloh taolo keng qilib qo'ygan doirada sun'iy ravishda insonlarga toraytirishga harakat qilganlarni qattiq qoralaydi. Payg'ambar (s.a.v) bu mutaassib gumrohlikka qarshi turli yo'llar bilan kurashganlar, Alloh taoloning hukmlarini o'zgartirganlarning halok bo'lishini bildirganlar: "O'zgartirganlar halok bo'lganlar".

Haqiqatan halolni haromlashtirish shirk keltirish bilan birdir. Shu boisdan ham Qur'oni Karim mushrik arablarni bu shirkleri, butparastliklari va halol bo'lgan ne'matlarni Alloh taoloning izni bo'lmay turib harom qilib olganlari uchun qattiq qoralaydi.

Qur'oni Karim mushriklarining bu kabi odatlarini rad etadi va insonlarga shunday xabar beradi:

¹⁴¹ Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Jome' at-Termiziy. Riyoz: Bayt al-Afkor. Nashr yili ko'rsatilmagan. – B. 492.

¹⁴² Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. 2004, – B. 286.

مَا جَعَلَ اللَّهُ مِنْ بَجِيرَةٍ وَلَا سَائِبَةٍ وَلَا وَصِيلَةٍ وَلَا حَامٍ وَلَكِنَّ الَّذِينَ كَفَرُوا يَفْتَرُونَ عَلَى اللَّهِ الْكَذِبَ وَكَثُرُهُمْ لَا يَعْقِلُونَ وَإِذَا قِيلَ لَهُمْ تَعَالَوْا إِلَىٰ مَا أَنْزَلَ اللَّهُ وَإِلَى الرَّسُولِ قَالُوا حَسْبُنَا مَا وَجَدْنَا عَلَيْهِ آبَاءَنَا أُولَٰئِكَ كَانَ أَبُوهُم لَّا يَعْلَمُونَ شَيْئًا وَلَا يَهْتَدُونَ

"Alloh na "bahiyra", na "soiba", na "vasiyla" va na "homiy" qilishga (buyurgani) yo'q. Lekin kofir kimsalar Alloh sha'niga yolg'on to'qimoqdalar. Ularning ko'plari aqlsizlardir. Qachon ularga:"Alloh nozil qilgan narsaga va payg'ambarga kelinglar", deyilsa, ular: "Biz uchun ota-bobolarni nimaning (ya'ni, qaysi dinning) ustida topgan bo'lsak, o'sha yetarli", deyishadi. Agar ota bobolari hech narsani bilmaydigan va haq yo'lni topa olmaydigan bo'lmasa ham-a?"¹⁴³

An'om surasida esa mayda tuyoqli hayvonlar, sigir, tuya kabi ba'zi hayvonlarning harom ekanligi haqidagi asossiz iddaolar boshqacha tarzda izoh etiladi. Qur'oni Karim bu bahsni juda ta'sirli bir uslub bilan bayon qiladi.

ثَمَانِيَةَ أَزْوَاجٍ مِّنَ الضَّأْنِ اثْنَيْنِ وَمِنَ الْمَعْرِ اثْنَيْنِ قُلِ الذَّكَرَيْنِ حَرَّمَ أُمِ الْأُنثَيَيْنِ أَمَّا اشْتَمَلَتْ عَلَيْهِ أَرْحَامُ الْأُنثَيَيْنِ نَبُؤُنِي بِعِلْمٍ إِن كُنْتُمْ صَادِقِينَ وَمِنَ الْإِبِلِ اثْنَيْنِ وَمِنَ الْبَقَرِ اثْنَيْنِ قُلِ الذَّكَرَيْنِ حَرَّمَ أُمِ الْأُنثَيَيْنِ أَمَّا اشْتَمَلَتْ عَلَيْهِ أَرْحَامُ الْأُنثَيَيْنِ أَمْ كُنْتُمْ شُهَدَاءَ إِذْ وَصَّاكُمُ اللَّهُ بِهَذَا فَمَن أَظْلَمُ مِمَّنِ افْتَرَىٰ عَلَى اللَّهِ كَذِبًا لِيُضِلَّ النَّاسَ بِغَيْرِ عِلْمٍ إِنَّ اللَّهَ لَا يَهْدِي الْقَوْمَ الظَّالِمِينَ

"Sakkiz juftni (yaratdi). qo'ydan ikkini (ya'ni, erkak va urg'ochini), echkidan ikkini (yaratdi). O'zlaricha harom qilib oluvchi mushriklarga ayting: (Alloh bu hayvonlardan) ikkala erkagini harom qilganmi yo ikkala urg'ochisini, yoki ikkala urg'ochining bachadonlarida bo'lgan homilanimi?! Agar rostgo'y bo'lsangizlar, biron hujjat bilan menga xabar beringlar-chi?!" Tuyadan ikkini, qora moldan ikkini (yaratdi). Ayting: "Ikkala erkagini harom qilganmi yo ikkala urg'ochisini, yoki ikkala urg'ochining qorinlarida bo'lgan homilanimi?!..."¹⁴⁴

A'rof surasida esa Alloh taolo darhol hamma narsalarga harom hukmini chiqarganlarni tanbeh berib mutloq harom bo'lgan narsalarni va bularning asllarini Shunday ochiqlaydi.

قُلْ مَنْ حَرَّمَ زِينَةَ اللَّهِ الَّتِي أَخْرَجَ لِعِبَادِهِ وَالطَّيِّبَاتِ مِنَ الرِّزْقِ قُلْ هِيَ لِلَّذِينَ آمَنُوا فِي الْحَيَاةِ الدُّنْيَا خَالِصَةً يَوْمَ الْقِيَامَةِ كَذَلِكَ نُفَصِّلُ الْآيَاتِ لِقَوْمٍ يَعْلَمُونَ قُلْ إِنَّمَا حَرَّمَ رَبِّي الْفَوَاحِشَ مَا ظَهَرَ مِنْهَا وَمَا بَطَّنَ وَالْإِنَّمِ وَالْبَغْيَ بِغَيْرِ الْحَقِّ وَأَنْ تُشْرِكُوا بِاللَّهِ مَا لَمْ يُنَزِّلْ بِهِ سُلْطَانًا وَأَنْ تَقُولُوا عَلَى اللَّهِ مَا لَا تَعْلَمُونَ

"Ayting (ey Muhammad): "Alloh bandalari uchun chiqargan bezak (liboslarni) va halol-pok rizqlarni kim harom qildi?!" Ayting: "Ular (ya'ni, bezak va halol rizqlar) hayoti dunyoda imon egalari uchun (bo'lib, kofirlarga ham ularga sherik bo'lur), qiyomat kunida esa faqat (mo'minlarning) o'zlariga xosdir". Biladigan qavm uchun oyatlarni mana Shunday mufassal qilinadi. Ayting: "Parvardigorim

¹⁴³ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. 2004, – B. 130-131.

¹⁴⁴ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. 2004, – B. 153.

faqatgina oshkor va yashirin buzuqliqlarni, (barcha) gunoh ishlarni, nohaq zulm qilishni va Allohga (sherik ekanligini) hech qanday hujjat tushurmagan narsalarni Unga sherik qilib olishingizni hamda Alloh sha'niga bilmaydigan narsalarni gapirishingizni harom qilgan, xolos¹⁴⁵.

Qur'oni Karimdagi munoqashali butun bu hukmlar, asosan, makkiy suralarida bo'lib doimo imon, tavhid va oxirat ishonchini mustahkamlaydi. Madina davrida musulmonlar orasida juda mutaassiblikka berilib, yaxshi halol narsalarni o'z nafsiga harom qilib olganlar bo'ldi. Shu sababdan Alloh taolo ularni ilohiy me'yorga keltira oladigan va Islom yo'liga qaytaradigan oyatlar nozil qildi:

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا لَا تَحْرَمُوا طَيِّبَاتِ مَا أَحَلَّ اللَّهُ لَكُمْ وَلَا تَعْتَدُوا إِنَّ اللَّهَ لَا يُحِبُّ الْمُعْتَدِينَ وَكُلُوا مِمَّا رَزَقَكُمُ اللَّهُ حَلَالًا طَيِّبًا وَاتَّقُوا اللَّهَ الَّذِي أَنْتُمْ بِهِ مُؤْمِنُونَ

"Ey imon keltirganlar, Sizlar uchun Alloh halol qilib qo'ygan narsalarni haromga chiqazmangiz va haddan oshmangiz! Zero, Alloh haddan oshuvchilarni yoqtirmaydi. Alloh sizlarga rizq qilib bergan narsalarning halol va poklarini tanovul qilingiz va o'z'laringiz imon keltirgan Allohdan qo'rqinglar!"¹⁴⁶.

Insonlarni yaratgan va ularga hisobsiz ne'matlar baxsh etgan Alloh taolo insonlar uchun istaganini halol va istaganini harom qilishi Uning g'oyat tabiiy va asl haqqidir. Ya'ni, bandalarining hech bir e'tiroz va isyonga haqlari bo'lmay, ularga istanidek amr etishi va istagan takliflarini ularga yuklashi ham yagona Xoliq bo'lgan zotning haqqidir. Ha, hech shubhasiz, insonlarning Alloh taologa qarshi hech bir e'tiroz va isyonga haqlari yo'q. Bu haq Ularning Robbilari bo'lgan Alloh taoloning haqqidir. Ularning bu haq qarshisida sukut qilishlari Unga qilingan ibodatlarining shartidir. Faqat Alloh taolo bevosita bandalarining manfaatlarini hisobga olgan holda ba'zi ma'qul sabablarga ko'ra halol va harom hukmlarini ochiq o'rtaga qo'yish bilan ularga lutf va marhamat ko'rsatgandir. Alloh taolo yaxshi va go'zal bo'lgandan boshqa hech narsani halol, yomon va zararli bo'lganidan tashqari hech narsani harom qilgan emas.

MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. 2004.
2. Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Jome' at-Termiziy. Riyoz: Bayt al-Afkor. Nashr yili ko'rsatilmagan.

¹⁴⁵ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. 2004, – B. 160.

¹⁴⁶ Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. 2004, – B. 153.